ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№6(5)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 114 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik koʻrsatkichlari ..... 10
Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov

Professor-oʻqituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yoʻllari ..... 15
Maxmudov Qudratbek Shavkat oʻgʻli

Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlangʻich sinflarda shakllanish bosqichlari ..... 21
Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Moʻminjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi

Tabiiy fanlarni oʻqitishda uch oʻlchamli vizualizatsiyalarning boshlangʻich ta'limdagi ahamiyati ..... 25
Nabijonova Feruza Valijon qizi

Loyiha texnologiyasi asosida boʻlajak oʻqituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni ..... 28
Oʻrinova Nilufar Muxammadovna

Sinfdan tashqari oʻqish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi ..... 32
Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.

Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari ..... 37
Tashpulatova Nodira Olimjon qizi

Tabiiy fanlarni oʻqitishda kompetensiyaviy yondashuv ..... 41
Umbarova Nasiba Xolboy qizi

Xorijiy tillarni oʻrganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati ..... 44
Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek oʻgʻli

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish koʻnikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida) ..... 47
Abduraxmanova Charos Burxanovna

Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities ..... 51
Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna

Lingvistik intellekt asosida individual oʻqitish yondashuvining samaradorligi ..... 55
Allanazarova Sadoqat Azimovna

Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari ..... 59
Boʻriyeva Mahbuba Shavkatovna

Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов) ..... 63
Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова

The Importance of Forming a Schedule for High School Students ..... 67
D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova

Milliy cholgʻu ansambllari orqali oʻquvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish ..... 70
Dadamirzayeva Gulshanoy Toʻlanjon qizi

Umumiy oʻrta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ..... 75
Jumanov Sherzod Saloyevich

Adabiyot darsliklari uchun yangi oʻzbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari ..... 78
Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi

Maktab geometriyasida koʻpyoqlilar mavzusini oʻrganishning innovatsion usullari ..... 83
Pirlepesov Umrbek Baxtiyor oʻgʻli

Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari ..... 86
Qahramonova Xumora Qahramonovna

Oʻquvchi-sportchilar uchun individual mashgʻulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati ..... 91
Qosimov Faxriddin Joʻraqulovich

Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ ........ 95
**Мансурова Гульмира Рафаэловна**

Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики ........ 101
**Рауфова Озода**

Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari ........ 105
**Choriyeva Dildora Ismat qizi**

Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida ........ 109
**Tangriyev Abdukarim Tovashevich**

# XORIJ TADQIQOTLARIDA ZAMONAVIY OILA TRANSFORMATSIYASIDA FARZANDLAR TARAQQIYOTINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna
O'zJOKU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xorijiy ilmiy tadqiqotlar asosida zamonaviy oilaning transformatsiyalashuvi sharoitida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari tahlil qilinadi. Globallashuv, urbanizatsiya, axborot texnologiyalarining rivojlanishi hamda oilaviy munosabatlarning o'zgarishi natijasida farzandlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy oila, oila transformatsiyasi, farzand taraqqiyoti, ijtimoiy-psixologik omillar, ota-onalik uslubi, oilaviy munosabatlar, psixologik salomatlik, ijtimoiy moslashuv, shaxs rivojlanishi, xorijiy tadqiqotlar.

**Abstract:** This article analyzes the socio-psychological foundations of children's development in the context of modern family transformation based on foreign scientific research. It highlights the factors influencing children's development as a result of globalization, urbanization, the development of information technologies, and changes in family relations.

**Key words:** modern family, family transformation, child development, socio-psychological factors, parenting style, family relations, psychological health, social adaptation, personal development, foreign research.

**Аннотация:** В данной статье на основе зарубежных научных исследований анализируются социально-психологические основы развития детей в условиях трансформации современной семьи. Освещаются факторы, влияющие на развитие детей в результате глобализации, урбанизации, развития информационных технологий и изменения семейных отношений.

**Ключевые слова:** современная семья, трансформация семьи, развитие ребенка, социально-психологические факторы, стиль родительства, семейные отношения, психологическое здоровье, социальная адаптация, развитие личности, зарубежные исследования.

## KIRISH

Bugungi oilada yuzaga kelayotgan transformatsiya jarayonlari ota-onalarning rolida jiddiy o'zgarishlarga olib bormoqda, bu holat esa ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini kompleks tahlil qilishni taqozo etib kelmoqda. Bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar ota-onalarning shaxsi, qadriyatlari hamda xulq-atvor strategiyalarining asosiy jihatlarini aniqlash imkonini bermoqda.

Hozirgi zamon ota-onalari axborot madaniyatiga egadir. Aksariyat ota-onalar oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bu ularning kasbiy hamda shaxsiy jihatdan yetukligidan dalolat beradi. Ular zamonaviy axborot texnologiyalaridan faol foydalanadilar, bu esa ularga farzandlar tarbiyasi, ta'limi va salomatligiga oid dolzarb masalalardan boxabar bo'lib turish imkonini beradi. Ota-onalar zamonaviy axborot texnologiyalaridan faol foydalana olishi ularga farzandlar tarbiyasi, ta'limi va salomatligiga oid dolzarb masalalar borasida xabardor bo'lish imkoniyatini beradi.

Ota-onalar uchun farzandlari eng oliy qadriyatdir. Bu holat farzandlar uchun ham jismoniy, ham aqliy va psixik rivojlanishlari uchun qulay sharoitlarni yaratib berishga intilishlarida namoyon bo'ladi. Bolaning xavfsizligini, uning farovonligini ta'minlash ota-onalarning birinchi darajali mas'uliyati va vazifasidir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Farzand dunyoga kelishida oilaviy tuzilmaning shakllanishida tanlov mavjud bo'lib, ushbu tanlovda ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli kam ta'minlangan yoki nikohsiz oilada farzand ko'rish holatlari ko'proq uchramoqda. Nikohsiz farzandni dunyoga keltirish, ota-onaning keyinchalik birga yashash yoki yashamasligidan qat'i nazar, oilaning keyingi beqarorligiga hamda bolalar rivojlanishidagi salbiy holatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, bolaning oilada boshdan kechirayotgan barcha holatlari oila tuzilmasidagi o'zgarishlar muhitiga qarab ma'lum darajada o'zgarib boradi. Shu sababli, oilaviy turmush tajribasi va bola rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni baholashda oila tuzilmasidagi turli holatlar va o'zgarishlarga olib keluvchi turfa yo'llarni to'liq hisobga olish ahamiyatga egadir. Oldingi tadqiqotlarda aksariyat ota-onalarning oilaviy ahvoli farzand tug'ilgan paytdagisi inobatga olingan bo'lib, bola tug'ilgandan keyingi oilaviy tuzilma bilan bolaning rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikning salbiy yoki ijobiy omillari kam sonli tadqiqotlardagina o'rganilgan.

Sharon Bzostek va Lawrence Berger bolalar hayotining ilk to'qqiz yilida oila tarkibi o'zgarishi natijasida bolaning ijtimoiy-emotsional rivojlanishida kelib chiquvchi farqlarni o'rganishgan. O'tkazilgan tadqiqot davomida nikohda va nikohda bo'lmagan er-xotinlar oilasida tug'ilgan bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi bilan bog'liq natijalar taqdim etildi.

*Birinchidan,* shahar sharoitida yashaydigan nikohsiz ota-onalarning farzandlari aksariyat hollarda 9 yoshga to'lgunga qadar oila tarkibida o'zgarishlarni boshdan kechirishadi, bolalarning taxminan uchdan ikki qismi shunday o'zgarishga duch kelishadi. Bundan tashqari, ota-onasi bilan birga yashaydigan oilalarda tug'ilgan bolalar va ota-onasi bilan birga yashamaydigan oilalarda tug'ilgan bolalar boshdan kechiradigan o'zgarishlar o'rtasida katta farq kuzatilgan.

*Ikkinchidan,* 3 yoshgacha oilaviy tuzilishdagi erta o'zgarishlarni boshdan kechirgan bolalarning hayotining keyingi bosqichlarida ham shunga o'xshash o'zgarishlarni boshdan kechirish ehtimoli yuqori bo'ladi. Chunki oilada yuzaga kelgan erta oilaviy beqarorlik keyingi oilaviy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin.

*Uchinchidan,* bolaning rivojlanishining dastlabki 3 yoshida hamda keyingi 9 yoshida xulq-atvor muammolaridagi farqlar bolaning dunyoga kelishi paytidagi oilaviy tuzilishga bog'liq ekanligi aniqlangan. Ya'ni bolaning to'qqiz yoshdan keyin oila strukturasining o'zgarishidagi ta'sirlari unchalik katta bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, bolaning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi bola tug'ilishidagi oilaviy tuzilma hamda barqarorligi o'rtasidagi kuzatiladigan bog'liqliklarni belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

*To'rtinchidan,* ota-onasi birga yashab, so'ng ajrashib, yana yarashib olgan oilalarda tug'ilgan bolalarning xulq-atvorida ota-onasi doimiy birga yashagan bolalarga nisbatan birmuncha ko'proq muammolar kuzatilishi aniqlangan.

Bundan tashqari, oila tuzilmasidagi o'zgarishlar, oila turidan qat'i nazar, oilaviy rollar, kundalik turmush tartibining buzilishi, shuningdek, oilaning yashash joyi, ota-onalarning mehnat faoliyati hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashidagi o'zgarishlarga olib borishi mumkin. Bu esa o'z navbatida ham ota-onada, ham bolada stress hamda ziddiyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Hatto eng qulay sharoitlarda ham oila tarkibidagi o'zgarishlar bolalar va kattalar uchun ma'lum darajada stress keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, takroriy o'zgarishlar tufayli to'planib qolgan stress hamda oila beqarorligi bolalar uchun ayniqsa zararli bo'ladi.

Ohirgi yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar oilaviy barqarorlik bola rivojlanishida muhim ekanligini tasdiqlab, bola boshdan kechirgan o'tish davrlarining mavjudligi yoki soni hamda uning kognitiv, ayniqsa, ijtimoiy-hissiy farovonligi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda.

Faoliyatning madaniy-tarixiy nazariyasi asoschilari shuni ta'kidlaydiki, bolaning rivojlanishi uchun uni o'rab turgan atrof-muhit nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy muhitdagi turli omillar bolaning intellektual rivojlanishini rag'batlantirishi yoki, aksincha, unga to'sqinlik qilishi mumkin. 1950–1970-yillarda tadqiqotchilar asosan bolaning psixik funksiyalarining shakllanishidagi umumiy tendensiyalar va davrlashtirishga e'tibor qaratgan bo'lsalar, bugungi kunda esa e'tibor asosan ma'lum bir yoshda psixologik funksiyalarning o'ziga xos rivojlanishiga qaratilmoqda.

Maktabgacha yoshda bola jadal rivojlanadi. Hayotning bu bosqichida psixik jarayonlar bevositadan bilvositaga hamda o'z-o'zini boshqaradigan shaklga o'tadi, bolaning tafakkuri esa markazsizlasha boshlaydi. L.S. Vigotskiyning fikricha, kattalar bolaning dunyoqarashi shakllanishi va rivojlanish zonasini belgilab beruvchi vositachi sifatida muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, bolalarning individual psixologik xususiyatlarini o'rganish, ijtimoiy rivojlanish muhitining turli omillari (ijtimoiy-demografik, ota-ona va bola munosabatlari) tavsifi bilan to'ldiruvchi tadqiqotlar nazariy va amaliy psixologiya uchun katta ahamiyat kasb etdi. Bunday tadqiqotlar xorijda dunyo bo'ylab faol olib borilmoqda. Tadqiqotchilar rivojlanish jarayoni bilan ota-onalarning ma'lumot darajasi, oila tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy mavqe kabi demografik omillar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishmoqda. Aksariyat tadqiqotlar bolalarda vazi-

falarni bajaruvchi funksiyalarining rivojlanishi bilan ota-onalarning ma'lumot darajasi, yashash sharoitlari va oilada ota-onaning ikkalasi ham borligi o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjudligini izohlab berdi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bundan tashqari, bolalar tarbiyasi hamda uning maktabgacha yoshdagi bolalarda vazifalarni bajarish funksiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlarning aksariyatida onaning tarbiya uslubi va qo'llab-quvvatlovchi xatti-harakatlarining maktabgacha yoshdagi bolalarda vazifani bajarish funksiyalari hamda muammolarni hal qilish ko'nikmalarining shakllanishiga ta'siri o'rganilgan. Buni ota-onalarning farzandlari bilan o'tkazadigan vaqti bilan ham izohlash mumkin, chunki aksariyat oilalarda onalar bolalar parvarishiga otalarga qaraganda har doim ko'proq vaqt sarflashadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Roskam, Stivenart, Menye va Noel bolalarda tormozlanishning rivojlanishida oilaviy muhitdagi tarbiya jarayonlarining o'rnini o'rganish maqsadida tadqiqot olib borishgan. Tadqiqot natijalari asosida onalar ham, otalar ham o'zlarining tarbiyaviy xatti-harakatlari orqali bolalarda ijro etuvchi funksiyalarning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishi, ammo bolalarda tormozlanishning rivojlanishiga onalarning ta'siri otalarning ta'siriga qaraganda kuchliroq ekanligi ko'rsatib berilgan.

Rossiya Ta'lim akademiyasining Ta'lim sotsiologiyasi markazi hamda M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti psixologiya fakultetining bir guruh tadqiqotchilari tomonidan zamonaviy oila transformatsiyasi natijasida ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-demografik omillari hamda psixologik jihatlarining bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlariga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot maqsadi sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishining turli jihatlarini aniqlash belgilangan edi.

Tadqiqot ikki bosqichda olib borilgan. Birinchi bosqichda bolalar rivojlanish darajasining jins, oila tarkibi va onalarning ma'lumoti darajasi kabi ijtimoiy hamda demografik omillar bilan bog'liqligi tahlil qilingan bo'lsa, ikkinchi bosqichda esa bolalar rivojlanishining tarbiya strategiyasi xususiyatlari, ya'ni tarbiya uslubi (avtoritar/demokratik), kelajakka qarashi (optimistik/shubhali) hamda bola bilan muloqot chog'idagi emotsional holati (ijobiy/salbiy) bilan aloqasi ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotchilar maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va emotsional sohalari rivojlanishi o'rtasida bog'liqlik borligini aniqlashgan bo'lib, onaning ma'lumoti darajasi bilan boladagi qo'rquvlarning soni va kechish shiddati o'rtasidagi bog'liqlik ham aniqlangan. Bundan tashqari, ona va bola munosabatlarida onaning hayotga munosabati, uning hissiy holati va tarbiyalash usuli maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi natijalar asosida ma'lum bo'lgan. Bu ona va bola o'rtasidagi ijobiy munosabatlarning o'ziga xos jihatlari bolaning o'zini o'zi nazorat qilish, xulq-atvori va kognitiv qobiliyatlarini namoyon etish bo'yicha topshiriqlarni bajarishda o'ziga xos strategiyalarni qo'llashiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu natijalarning katta ahamiyati shundaki, bolaning rivojlanishiga ham jismoniy, ham psixologik ta'sir ko'rsatuvchi omillar uning maktabga tayyorgarligi hamda kelajakdagi akademik muvaffaqiyatlari uchun muhim shart-sharoit sifatida ko'rib chiqilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, zamonaviy oilaning transformatsiyalashuvi farzandlar taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning ijtimoiylashuvi, emotsional barqarorligi va shaxs sifatida shakllanish jarayonlarini yangi mazmun bilan boyitmoqda. Farzandlarning sog'lom psixologik rivojlanishida oiladagi ijobiy emotsional muhit, ota-onalar o'rtasidagi o'zaro hurmat va samarali kommunikatsiya muhim omillar hisoblanadi. Oilaviy munosabatlarning sifat darajasi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi farzandlar rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni yaratish bilan birga, nazoratsiz foydalanish holatlarida psixologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlangan. Zamonaviy oila sharoitida farzandlarning barkamol rivojlanishini ta'minlash uchun oila, ta'lim muassasalari va jamiyat institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Ota-onalarning pedagogik va psixologik bilimlarini oshirish maqsadida muntazam seminar-treninglar hamda maslahat xizmatlarini tashkil etish lozim.
2. Oilalarda sog'lom psixologik muhitni shakllantirishga qaratilgan psixoprofilaktik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.
3. Farzandlarning raqamli madaniyatini rivojlantirish, internet va ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha maxsus ta'lim dasturlarini kengaytirish zarur.
4. Ta'lim muassasalari va oilalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ota-onalarning farzandlar ta'lim-tarbiyasi jarayonidagi ishtirokini faollashtirish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**
1. Алексеева Е.Н. Развитие представлений о семье и образе родителя в системе детскородительских отношений / Е.Н. Алексеева // Теория и практика общественного развития. – 2012. – №12. – С. 173–176. – EDN PKEYKB
2. Вагапова А.Р. Представления о материнстве/отцовстве и родительские установки у молодежи / А.Р. Вагапова // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Акмеология образования. Психология развития. – 2015. – Т. 4. №2 (14).
3. Berger LM, Bzostek SH. Young adults' roles as partners and parents in a context of family complexity. Annals of the American Academy of Political and Social Science. 2014;654:87–109. doi: 10.1177/0002716214527729. [DOI] [PMC free article] [PubMed] [Google Scholar][Ref list]
4. McLanahan S, Jacobsen W. Diverging destinies revisited. In: Amato PR, Booth A, McHale SM, Van Hook J, editors. Families in an era of increasing inequality. Cham, Switzerland: Springer International Publishing; 2015. pp. 3–23. [Google Scholar][Ref list]
5. Sharon H Bzostek , Lawrence M Berger 2 Family Structure Experiences and Child Socioemotional Development During the First Nine Years of Life: Examining Heterogeneity by Family Structure at Birth. Research Article| March 15 2017. Published in final edited form as: Demography. 2017 Apr;54(2):513–540. doi: 10.1007/s13524-017-0563-5
6. Кавана С. Э., Хьюстон А. К. Время возникновения нестабильности в семье и социальное развитие детей. Журнал брака и семьи. 2008;70:1258–1270.
7. Amato PR. Research on divorce: Continuing trends and new developments. Journal of Marriage and Family. 2010;72:650–666.
8. Лисина, М.И. (2009). Формирование личности ребенка в общении . СПб: Питер. Психологическая наука и образование, 3, 77–87.
9. Смирнова Е.О., Собкин В.С., Асадулина О.Е., Новаковская А.А. (1999). Специфика эмоционально-личностной сферы дошкольников, живущих в неполной семье (на материале детских рисунков) // Вопросы психологии, 6, 18–28.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.